UO‘K 94 (575.1)

1930–1940-YILLARDAGI DEHQONLAR SURGUNINING MAFKURAVIY VA IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI

M.G‘. Abdullayev

Maqolada sovet davlati 1930-yillarda dehqon xo‘jaliklariga nisbatan amalga oshirgan surgun-qatag‘on siyosatining mafkuraviy omillari, ommaviy amalga oshirilgan dehqonlar surgunining ijtimoiy-iqtisodiy sabablari tahlil etilgan. O‘zbekiston SSRdagi dehqonlar surgunining 4 ta bosqichi aniqlanib, har bir bosqichning ko‘lami, o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatilgan. Surgun joylaridagi ma’muriy boshqaruv masalalari bo‘yicha ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning mohiyati tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: *agrar siyosat, mafkuraviy omil, kollektivlashtirish, quloq, quloq qilish, quloq xo‘jaliklari, OGPU, surgun, surgun mintaqalari, surgun bosqichlari, komendatura nazorati, maxsus posyolkalar.*

В статье анализируются идеологические факторы репрессивно-ссыльной политики Советского государства, а также социально-экономические причины массовой ссылки дехкан в 1930-е годы. В статье выделены 4 этапа ссылки крестьянских семьей в Узбекской ССР, показаны масштабы и особенности каждого этапа ссылки. Описана сущность нормативных актов, разработанных по вопросам административного управления в местах ссылки.

Ключевые слова: *аграрная политика, идеологический фактор, коллективизация, кулак, раскулачивание, кулацкие хозяйства, ОГПУ, ссылка, ссыльные регионы, этапы ссылки, комендантский надзор, спецпоселения.*

1930-yillarning boshlarida quloq xo‘jaliklariga nisbatan yoppasiga kollektivlashtirishning jazolovchi komponenti hukmronlik qildi. Bu davrda butun mamlakatda bo‘lganidek, O‘zbekistonda ham quloq xo‘jaliklarini tugatishning mafkuraviy asosini “sinfiy dushman” qiyofasi tashkil etdi. Sovet davlati va boshqa davlatlarning tarixiy tajribasi sinfiy dushman fenomeni har bir jamiyat uchun muqarrar emasligini isbotlaydi. Bu hodisaning kelib chiqishida ma’lum bir davlatning o‘ziga xos mafkurasi rol o‘ynaydi. Zero, “sinfiy kurash” tushunchasi kommunistik mafkuraning ajralmas qismi edi. “Kommunistik partiya Manifesti”ning asosiy g‘oyasi ham ibtidoiy tuzumdan tashqari, jamiyatning qolgan barcha bosqichlarida “sinflarning antagonistik kurashi” bo‘lganligini ta’kidlaydi.

Sinflar va sinfiy kurashning nazariy tushunchalari Sovet davlatida Oktyabr to‘ntarishidan keyin amaliyotga keng tatbiq etila boshlandi. Bolsheviklar partiyasi uchun aholining salmoqli qismi manfaatlarini aks ettiruvchi siyosat va mafkura zarur edi. Bolsheviklar yo‘lboshchisi V.Lenin esa sinfiy tabaqalanish va sinfiy kurash o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi, deb hisoblagan. Lenin o‘z asarlarida mulkiy munosabatlarga ko‘ra turli sinflarni bir-biridan ajratib turuvchi belgilarni aniqlashga uringan. U burjuaziyaning ishlab chiqarish vositalariga egaligi ishlab chiqarish vositalaridan mahrum bo‘lgan proletariatdan asosiy farqi ekanini yozgan [1. B. 123].

1922-yilda sovet davlatida butun ekin yerlar iste’molchilar soni bo‘yicha qayta taqsimlangandan so‘ng dehqonlar tom ma’noda yer egasiga aylandilar. Bu ma’lum darajada quloq xo‘jaliklari uchun ham foydali bo‘ldi. Qishloq taraqqiyoti yo‘lini tanlashda sovet hukumati mayda xo‘jaliklarni birlashtirishni zarur deb hisobladi. Sotsialistik mafkura uchun yerning quloqlar qo‘liga o‘tishi maqsadga muvofiq emas, chunki bunday holda kambag‘al dehqonlarni ekspluatatsiya qilish davom etadi. Shu bois, bolsheviklar quloqlarni sinf sifatida tugatish va qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish yo‘lini tanladilar. Bu mafkura

lenincha tushunchaga asoslangan edi. Lenin bu borada qishloqda kapitalizmni yo‘q qilish uchun barcha yakka dehqon xo‘jaliklarini tugatish kerakligini, mayda dehqon xo‘jaliklari o‘z faoliyatlari bilan burjuaziyani saqlab qolishga hissa qo‘shishini ta’kidlab, “har bir mayda dehqonning quloq xo‘jaliklari rivojlanishida ma’lum hissasi bor”ligini ko‘rsatib o‘tgan. Bu kabi g‘oyaga binoan mayda dehqon xo‘jaliklaridan ularni kolxozlarga birlashtirib qutulish, kolxozlarga raqib bo‘lgan quloqlarni esa yo‘q qilish yo‘li tanlandi.

1920-yillar oxirida sovet davlatidagi agrar masalani qayta ko‘rib chiqishga doir bir qator muhokamalardan so‘ng yoppasiga kollektivlashtirishga qaror qilindi. Hokimiyat tuzilmalari qishloqda kapitalizm asoslarini yo‘q qilish va mamlakatni sanoatlashtirish uchun mablag‘ topishda kollektivlashtirishdan foydalandi. Kollektivlashtirish jarayonida kichik dehqon xo‘jaliklarini kolxozlar asosida birlashtirish yoki ularni davlat sektori (sovxozlar) doirasida jamlash nazarda tutildi.

Quloqlar surgunining *birinchi bosqichi* quloqlar sinfiga barham berish muammosini hal qildi. 1920-yillarda sovet davlatida aholining 80 foizdan ortiqrog‘i qishloqlarda yashagani uchun ham dehqonlar muammosi davlat uchun g‘oyat ustuvor masala edi. Quloqlar tomonidan yollanma mehnatdan foydalanilishi ularga “ekspluatator sinf” deya nisbat berilishiga sabab bo‘ldi. 1918-yil 11-iyundagi dekret asosida tuzilgan kambag‘allar komitetlari quloqlarga qarshi kurashda sovet hukumatining asosiy tayanchiga aylandi. Kambag‘allar komitetlari joylarda quloqlardan musodara qilingan yerlarni, ortiqcha g‘alla, oziq-ovqat mahsulotlari va musodara qilingan mulklarni o‘zaro bo‘lib ola boshladilar. 1928-yilga kelib sovet qonunchiligida “quloq” atamasi ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi va quloqlik ko‘rsatkichlari shakllantirildi. 1928-yil dekabrda qabul qilingan qonunda birinchi marta dehqonlarning yerga bo‘lgan huquqlari dehqonning sinfiy maqomiga (“quloq”) va siyosiy mavqeiga (“haqsiz”) bog‘liq holda talqin etildi. Jumladan, qonunda “Sovetlarga saylov huquqidan mahrum qilingan kishilar foydalanish uchun yerni oxiri bo‘lib oladilar”, “yerni quloq xo‘jaliklariga ijaraga berish taqiqlanadi” kabi moddalar bor edi [2. B. 28–41].

“Quloq” va “Quloq-kapitalistik unsurlar” tushunchalari kooperativ qonunchilikda va “quloq tipidagi dehqon xo‘jaliklari”ni ajratib ko‘rsatuvchi qonunda qo‘llanila boshladi.

Xo‘jaliklarni “quloq” sifatida belgilovchi iqtisodiy ko‘rsatkichlar SSSR XKSning 1929-yil 20-fevraldagi “Quloq xo‘jaliklarida mehnat to‘g‘risidagi kodeksni qo‘llash tartibi to‘g‘risida”-gi va 1929-yil 21-maydagi “Mehnat qonuni kodeksini qo‘llash lozim bo‘lgan quloq xo‘jaliklari belgilari haqida”gi qarorlarida [3. B. 108–110] o‘z aksini topdi. 21-maydagi qarorda quyidagi beshta belgi bo‘yicha individual shakldagi soliq tartibiga kiritiladigan quloq xo‘jaliklarini aniqlash ko‘zda tutildi: a) surunkali yollanma mehnatdan foydalanish; b) tegirmon, moyjuvoz, qandolatxona va shunga o‘xshash ishlab chiqarish vositalarining mavjudligi; v) surunkali ravishda qishloq xo‘jalik mashinalarini ijaraga berish; g) surunkali yoki mavsumiy ravishda mehnat qurollari, ish hayvonlari va binolarni ijaraga berish; d) oilada savdogarlik, sudxo‘rlik, tijorat vositachiligi bilan shug‘ullanib, mehnatsiz daromad topayotganlarning mavjudligi [3. B. 109].

Qarorda respublika, o‘lka va okrug ijroiya komitetlari yuqoridagi bu belgilarni mahalliy sharoitlarga moslab o‘zgartirishlari mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi.

1929-yil 6-iyulda O‘zSSR Xalq Komissarlari Sovetining “Imtiyozlardan foydalanmaydigan quloq xo‘jaliklari belgilari haqida”gi qarori e’lon qilindi. Qarorda mavjud belgilar bo‘yicha ro‘yxatga olingan quloq xo‘jaliklari O‘zSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1929-yil 19-martdagi “Yagona qishloq xo‘jalik solig‘i to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan imtiyozlardan mahrum qilindilar [3. B. 111].

1929-yil avgust oyida O‘zSSR XKS tomonidan Mehnat Qonuni Kodeksi (KZOT) bo‘yicha majburiyatga tortiladigan quloq xo‘jaliklarini hisobga olish yuzasidan qaror loyihasi ishlab chiqildi [3. B. 115].

Yuqoridagi qarorlarda qo‘llangan “quloq”, “quloq xo‘jaligi” atamalarining ta’rifi noaniq edi. Dehqonlarning odatda quloq haqidagi kundalik tushunchalarining farovonlik yoki siyosat bilan aloqasi yo‘q edi, ularning fikricha, dehqon qishloqning iqtisodiy me’yorlarini yoki jamoa axloqini buzsa quloqqa aylanar edi.

1930-yil 5-yanvarda VKP(b) MK qabul qilgan qarorda kollektivlashtirish mintaqalari mamlakat bo‘yicha uchta guruhga ajratilib, har bir guruh uchun kollektivlashtirishni yakun-

lash muddatlari belgilandi. Muddatning oxirgi chegarasi 1932-yilning bahori edi.

Molotov rahbarligidagi komissiya quloq qilishni huquqiy jihatdan asoslash bilan shug‘ullandi. “Molotov komissiyasi umumiy anarxiyadan qochish va ayni paytda kollektivlashtirishning eng kuchli sur’atlarini saqlab qolish uchun kampaniyani tezlashtirishga munosabat bildirishi, uni markaz nazorati ostiga olishga harakat qilishi kerak edi” [4. B. 503–524].

VKP(b) MK Siyosiy byurosining 1930-yil 30-yanvardagi “Yoppasiga kollektivlashtirish rayonlarida quloq xo‘jaliklarini tugatish tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida kollektivlashtirilayotgan rayonlarda yerni ijaraga berish, yollanma mehnatdan foydalanish taqiqlandi. Quloq xo‘jaliklaridan ishlab chiqarish vositalarini, chorva hayvonlarini, istiqomat va xo‘jalik binolarini, turli xil qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi vositalar va urug‘lik zaxiralarini musodara qilish tavsiya qilindi. Quloq xo‘jaliklaridan musodara qilingan mol-mulklar kambag‘al dehqonlarning a’zolik badali sifatida kolxozlarning bo‘linmas fondi hisobiga o‘tkazilishi ko‘rsatildi [5. B. 128–129].

Qarorda quloq xo‘jaliklari uch toifaga bo‘lindi: birinchi toifa – sovetlarga qarshi va kolxozga qarshi harakatda faol qatnashganlar. Ular “aksilinqilobchi faol quloqlar” sifatida qamoqqa olinishi, oilasi esa mamlakatning boshqa chekkasiga surgun qilinishi lozim edi; ikkinchi toifa – “yirik quloqlar va yarim pomeshchiklar, kollektivlashtirish siyosatiga faol qarshi chiqqanlar”. Ularning mol-mulki musodara qilinib, oilasi bilan boshqa respublikalarga surgun qilinishi ko‘rsatildi; uchinchi toifa – “qolgan barcha quloqlar” bo‘lib, ular mol-mulki musodara qilinib, respublikaning o‘zidagi maxsus posyolkalarga ko‘chirilishi ko‘rsatildi [5. B. 126–127].

Surgunga mahkum xo‘jaliklar soni va ro‘yxati rayon ijroqo‘mlari tomonidan tuzilib, okrug ijroiya komiteti tomonidan tasdiqlangan. Ro‘yxat tasdiqlanganidan so‘ng, birinchi toifaga mansub quloq xo‘jaliklari GPU organlari ixtiyoriga topshirilgan. GPU rayon siyosiy “uchlik”lari tomonidan quloqlar ro‘yxati berilgandan so‘ng, surgun qilinayotgan oila erkaklarini qamoqqa olishi ham mumkin edi [3. B. 54].

O‘zSSR MIK va XKSning 1930-yil 15-martdagi yo‘riqnomasida uchala toifadagi quloq xo‘jaliklariga tegishli mol-mulk, pul, qimmatbaho qog‘ozlar musodara qilinib kolxozlarga yoki qishloq sovetlari ixtiyoriga berilishi, quloqlar ixtiyorida esa surgun joyidagi xo‘jalik faoliyati uchun bir bosh ish hayvoni, minimum miqdorda ish qurollari, kundalik uy-ro‘zg‘or buyumlari, kiyim-kechak, oziq-ovqat, urug‘lik va 500 so‘mgacha pul qoldirilishi mumkinligi belgilandi [3. B. 54].

OGPU birinchi va ikkinchi toifalarga nisbatan jazo choralarini belgiladi. Chunonchi, 60000 quloqlarni konslagerlarga yuborish, 150000 quloq oilalarini chekka, kimsasiz mintaqalarga surgun qilish. Jumladan, surgun mintaqalari – Shimoliy o‘lkaga 70 ming oilani, Sibirga 50 ming oilani, Uralga 20-25 ming oilani, Qozog‘istonga 25 ming oilani surgun qilish va ulardan qishloq xo‘jaligi, baliqchilik, ko‘mir qazib olish sanoatida keng foydalanish ko‘zda tutildi [5. B. 127].

Hokimiyatning fikricha, bunday ko‘p sonli dehqonlarni qatag‘on qilish zarurati qishloqda sinfiy kurashning avj olganligi va buning asosiy sababchilari quloqlar deb hisoblanishi bilan bog‘liq edi. Jazo nafaqat dehqonlarning “aksilinqilobiy faol” qatlamlariga, balki zarurat tufayli vaqti-vaqti bilan yollanma mehnatdan foydalangan o‘rtahol dehqonlarga ham tatbiq etildi.

Qishloq xo‘jaligini yoppasiga kollektivlashtirish davrida O‘zbekiston SSR ham “quloq” xo‘jaliklari surgun qilinadigan hududlar ro‘yxatidan o‘rin oldi. 1930-yil boshlaridan quloqlar deb tasniflangan dehqon oilalari “ijtimoiy xavfli va zararli” deb e’lon qilindi va mahalliy hokimiyat organlari qarori bilan respublika ichida (yoppasiga kollektivlashtirish e’lon qilingan rayonlardan tashqariga) va respublikadan tashqariga surgun qilina boshladi [6. B. 174]. Surgun qilish bo‘yicha asosiy qoidalar SSSR MIK Prezidiumining 1930-yil 4-fevraldagi maxfiy yo‘riqnomasida [7. B. 69–70] ko‘rsatildi. Bunga ko‘ra, viloyat ichidagi ko‘chirish ishlari mahalliy ijroqo‘mlar zimmasiga, boshqa o‘lkalarga surgun qilish va joylashtirish bilan bog‘liq tashkiliy ishlar OGPU zimmasiga yuklandi.

O‘zbekiston SSRda kollektivlashtirish davridagi quloqlar surgunini to‘rtta bosqichga ajratish mumkin. Surgunning *birinchi bosqichi* 1930-yilda amalga oshirildi. 1930 yil bahorida ittifoq bo‘yicha 65600 xo‘jalikni (346500 kishi) surgun qilish mo‘ljallangan bo‘lib, amalda 66445 xo‘jalik (342545 kishi) surgun qilingan [8.

B. 174]. Jumladan, O‘rta Osiyo respublikalarida 1930 yil 1 yanvardan 1 avgustga qadar 748 quloq xo‘jaligi tugatilib, ulardan 159 oila (197 kishi) 2-toifa bo‘yicha Qozog‘istonga surgun qilingan*, 162 oila (250 kishi) 3-toifa bo‘yicha rayon va okruglar bo‘ylab ko‘chirilgan, surgun qilinmay qolgan xo‘jaliklar 527 ta bo‘lgan. Tugatilgan 748 xo‘jalikdan O‘zbekiston bo‘yicha: 1-toifa – 274 xo‘jalik, 2-toifa – 73 xo‘jalik, 3-toifa – tugatilgan, mol-mulki musodara qilingan va okrug ichida ko‘chirilgan 181 xo‘jalik; Turkmaniston bo‘yicha: 1-toifa – 40 xo‘jalik, 2-toifa – 33 xo‘jalik, 3-toifa – 78 xo‘jalik; Tojikiston bo‘yicha quloq qilish bu paytga qadar o‘tkazilmagan; Qirg‘iziston bo‘yicha: 69 xo‘jalik tugatilgan, lekin surgun qilinmagan [9. B. 59–60]. Bu bosqichda O‘rta Osiyodan 400 xo‘jalikni (2000 kishi) Qozog‘istonga surgun qilish rejasi belgilangan bo‘lib, amalda 159 xo‘jalik (197 kishi) surgun qilingan [10. B. 75].

1930-yil fevralidan 20 mayigacha bo‘lgan vaqtda O‘rta Osiyodan 2-toifa bo‘yicha quloq oilalarini surgun qilish 80 oilani (281 kishi) tashkil etdi. Mamlakat bo‘yicha esa bu davrgacha 67994 oila (343734 kishi) boshqa o‘lkalarga surgun qilindi. O‘lka bo‘ylab ichki surgun (2-toifa) SSSR bo‘yicha 32268 oila yoki 162021 kishini tashkil qildi (bu davrda O‘rta Osiyoda ichki surgun o‘tkazilmagan). Jami surgun qilinganlar 100262 oila yoki 510755 kishini tashkil qilgan [10. B. 79]. Bundan tashqari, 1930-yilning 20-mayigacha O‘rta Osiyo respublikalarida 3-toifa bo‘yicha 349 oila yoki 1764 kishi okruglar ichida ko‘chirilgan [10. B. 82].

Quloq xo‘jaliklarini surgun qilishning *ikkinchi bosqichi* 1931-yilda amalga oshirildi. Bu bosqichdagi surgun ishlari 1930-yildagiga nisbatan ancha intensiv o‘tkazildi. OGPU rahbariyati quloq oilalarini surgun qilishdagi asosiy ijrochi organ sifatida o‘tgan yildagi xatolarni takrorlamaslik uchun joylardagi muxtor vakilliklariga bu safar aniq direktiv ko‘rsatmalar yubordi. Xususan, OGPU raisi G.Yagodaning OGPU O‘rta Osiyo muxtor vakilligiga yuborgan 1931-yil 11-iyundagi 462-son va 11-avgustdagi 666-son direktivalarida O‘rta Osiyo respublikalaridan 6000 boy-quloq xo‘jaliklarini Ukraina va Shimoliy Kavkazga surgun qilish, belgilangan surgun normasini oshirib yubormaslik, 10 yoshgacha bo‘lgan bolalarni, 65 dan yuqori yoshdagilarni qarindoshlari qaramog‘ida qoldirish, surgun qilinayotgan oilalarni kamida 3 oyga yetadigan oziq-ovqat zaxirasi, issiq kiyim-kechak, poyabzal, yetarli miqdorda mehnat qurollari bilan ta’minlash zarurligi qat’iy aytilgan. Shuningdek, xo‘jalik boshliqlarini surgun qilinishiga qadar qochib ketmasligi uchun qamoqqa olish haqida ham ko‘rsatma berilgan [11. B. 78–79].

Bu bosqichda 1931-yilning 31-avgustigacha O‘rta Osiyo respublikalaridan 5690 xo‘jalik – 27466 kishi ikkinchi toifa bo‘yicha boshqa o‘lkalarga surgun qilindi. Jumladan, O‘zbekiston SSRning 31 ta rayonidan 3818 xo‘jalik – 17775 kishi, Turkmaniston SSRning 1 ta rayonidan 430 xo‘jalik – 2332 kishi, Tojikiston ASSRning 17 ta rayonidan 737 xo‘jalik – 4011 kishi, Qirg‘iziston ASSRning 8 ta rayonidan 705 xo‘jalik – 3348 kishi surgun qilindi [12. B. 67]. Ulardan 2213 oila (11401 kishi) Shimoliy Kavkazga, 3444 oila (15910 kishi) Ukrainaga, 1128 oila (5770 kishi) O‘rta Osiyo respublikalari bo‘ylab surgun qilindi [12. B. 92–94].

O‘rta Osiyo respublikalarida 2– va 3-toifadagi quloq xo‘jaliklarini mintaqa ichida surgun qilish, asosan, 1932-yil may oyida amalga oshirildi. Bu O‘rta Osiyodagi “quloqlar surguni”ning *uchinchi bosqichi* hisoblanadi. 1932-yildagi surgun operatsiyasi VKP(b) MK Siyosiy byurosining 1932-yil 4-maydagi “1932-yilda quloqlarni surgun qilish rejasi to‘g‘risida” va SSSR XKSning 1932-yil 7-maydagi “Maxsus ko‘chirilganlar to‘g‘risida” qarorlari asosida amalga oshirildi [7. B. 537–540]. SSSR XKSning qarorida 1932-yil may oyida mamlakat bo‘yicha 38300 quloq oilasini surgun qilish, jumladan, O‘rta Osiyo respublikalaridan 7000 oilani O‘rta Osiyo ichida ko‘chirish belgilangan. Ko‘chirish xarajatlari uchun SSSR XKS rezerv fondidan 3 million 500 ming so‘m OGPUga berilgan [7. B. 539–540].

1932-yilda SSSRning markaziy rayonlarida surgun qilish oqimi 1930–1931-yillarga nisbatan pasaygani holda, O‘rta Osiyoda kengaydi. Ya’ni, 1932-yilda O‘rta Osiyo respublikalarida ichki surgun qilinganlar 1930–1931-yillarda surgun qilinganlar miqdoridan ko‘proq bo‘ldi. Jumladan, O‘zbekistonda 4865 xo‘jalik (22505

* Qozog‘istonga surgun qilingan 159 xo‘jalik tub millat vakillari bo‘lmay, asosan rus oilalari bo‘lgan. Ular Qozog‘istonning o‘zidan ichki ko‘chirilgan quloq xo‘jaliklari bilan birga Orol dengizidagi KazARSO baliq ovlash xo‘jaligi ixtiyoriga berilgan.

kishi) [13. B. 81–82], Tojikistonda 556 xo‘jalik (2502 kishi), Qirg‘izistonda 479 xo‘jalik (2148 kishi), Turkmanistonda 143 xo‘jalik (644 kishi) ko‘chirildi [14. B. 179–182]. 1932-yilda O‘rta Osiyo respublikalarida jami 6043 xo‘jalik (27799 kishi) mintaqa ichida surgun qilindi. Umuman, 1930–1932-yillar davomida O‘rta Osiyo respublikalaridan 12987 xo‘jalik (61077 kishi) ittifoqning boshqa mintaqalariga va O‘rta Osiyo bo‘ylab surgun qilindi.

Dehqon xo‘jaliklarini surgun qilishning *to‘rtinchi bosqichi* 1933–1936– yillarda amalga oshirildi. VKP(b) MK Siyosiy byurosining 1933-yil 17-apreldagi “OGPUning mehnat posyolkalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorida joriy yilda mamlakatning turli hududlaridan 1 million kishini G‘arbiy Sibir va Qozog‘istonga surgun qilish rejalashtirilgan [7. B. 598–605]. Biroq moliyaviy-tashkiliy qiyinchiliklar tufayli Siyosiy byuro avgust oyida surgun qilinadiganlar miqdorini 550 ming kishiga qisqartiradi. 1933-yil davomida, dahshatli ocharchilik sharoitida mamlakatning turli joylaridan 268091 kishi, jumladan, O‘rta Osiyodan 3672 kishi boshqa o‘lkalarga (Sibir va Shimoliy Qozog‘istonga) surgun qilindi [15. B. 48]. 1934-yilda mamlakat bo‘yicha 111459 kishi, 1935-yilda 117270 kishi, 1936-yilda 77182 kishi surgun qilindi. 1933–1936-yillarda jami 500 mingga yaqin kishi surgun qilindi [16. B. 211].

SSSR XKSning 1935-yil 20-apreldagi “USSR, Shimoliy Kavkaz va Moskvadan surgun qilinganlarni xo‘jalik jihatdan uyushtirish haqida”gi qarori bo‘yicha Shimoliy Kavkazning milliy rayonlaridan surgun qilingan 4560 kishi may oyida O‘zbekiston SSR maxsus posyolkalariga joylashtirildi. Ayni vaqtda Leningrad oblasti va Kareliyaning chegara hududlaridan surgun qilingan “quloq va antisovet unsurlar”dan 425 oila (1988 kishi) Qirg‘iziston ASSR mehnat posyolkalariga, 941 oila (3886 kishi) Tojikiston ASSR mehnat posyolkalariga joylashtirilgan [14. B. 219–220].

1931-yil iyunigacha surgun qilinganlar masalasi bilan mahalliy ijroqo‘mlar shug‘ullandi. Bu organlar tegishli vazifalarni bajarmasligi oqibatida maxsus posyolkalarda og‘ir ahvol yuzaga kelgan. Og‘ir sharoit tufayli kasallik va o‘lim holatlari odatiy tus olgan, posyolkalardan qochib ketish jarayoni kuchaygan. Shu bois VKP(b) MK Siyosiy byurosining 1931-yil 20-maydagi qaroriga binoan 1931-yil iyul oyidan surgun qilinganlarni joylashtirish va maishiy-xo‘jalik jihatdan uyushtirish ishlari bilan OGPU organlari shug‘ullana boshladi.

1931-yil 1-iyulda SSSR XKSning “Maxsus ko‘chirilganlarni uyushtirish to‘g‘risida” qarori qabul qilindi [17. B. 81–83]. Bu qaror maxsus posyolkalar tizimining yuzaga kelishi va faoliyatiga keng yo‘l ochib bergan davlat qonuni vazifasini bajardi. Qarorda surgun qilinganlarning huquqiy maqomi belgilandi, maxsus manzilgohlar tashkil etish, ular faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va eng asosiysi – maxsus posyolkalar aholisi mehnatidan foydalanishning tartiblari ko‘rsatib berildi [12. B. 82]. Muhimi, bu qarorga ko‘ra, surgun qilinganlarni boshqarish vakolati OGPU organlariga o‘tkazildi. OGPU GULAGi O‘rta Osiyodagi maxsus ko‘chirilganlar bo‘yicha barcha ishlarni OGPUning O‘rta Osiyo bo‘yicha muxtor vakilligi orqali olib bora boshladi [18. B. 31–61].

Maxsus posyolkalar boshqaruvi, shuningdek, maxsus ko‘chirilganlarning huquq va majburiyatlari OGPUning 1931-yil 25-oktyabrdagi “Maxsus posyolkalar ma’muriyatining funksiyalari va maxsus ko‘chirilganlarning huquqlari va majburiyatlari bo‘yicha Muvaqqat nizom”da [6. B. 183–190] aks etdi. Unda maxsus ko‘chirilganlar va OGPU komendaturalarining huquq va majburiyatlari, maxsus ko‘chirilganlarni jinoyati uchun javobgarlikka tortish, prokuror nazorati, fuqarolik holati aktlarini qayd qilish tartiblari belgilandi.

Partiyaning ustuvor siyosiy strategiyasi sinfiy kurash edi. Quloqlar “sinfiy dushman” deb e’lon qilingan, shuning uchun ham ularga qarshi qo‘llangan har qanday qonunsizliklar huquqiy asosga ega, deb hisoblandi. Sinfiy kurash strategiyasi bo‘yicha yoppasiga kollektivlashtirish davrida sovet mamlakatida ikki milliondan ortiq dehqon xo‘jaligi yo‘q qilindi. Dehqonning quloq yoki quloq emasligi, uning quloqlik toifasi haqidagi qaror qishloqlarda tashkil etilgan kambag‘allar yig‘ini tomonidan qabul qilingan. Kambag‘allar yig‘ini surgun qilinadigan quloq xo‘jaliklari ro‘yxatini tuzib, hokimiyat organlariga taqdim etgan. Dehqonlarni surgun qilish tartibi SSSR MIK va XKS qaror va ko‘rsatmalari hamda OGPUning maxfiy buyruqlari bilan tartibga solingan.

OGPU quloq oilalari surgunini amalga oshirish uchun temir yo‘l eshelonlari miqdori, eshe-

lon harakat marshrutlari bo‘yicha mukammal rejani ishlab chiqqan. Biroq uni amalga oshirish jarayonida qator xatoliklar yuz berdi.

1931–1932-yillardagi dehqonlar surguni bosqichlarida yuqori hokimiyat organlarining quloqlarga bo‘lgan qarashlari birmuncha o‘zgardi. Sanoatlashtirish mintaqalarida nafaqat sanoatni, balki qishloq xo‘jaligini ham rivojlantirish zarur bo‘lib, bu maqsadlarga erishish uchun aholi ko‘p mintaqalardan yirik mehnat kapitalini keltirish lozim, deb hisoblandi. Davlat dastlabki bosqichda bu muammoni SSSRning turli hududlaridan rejali-ko‘ngilli ko‘chirish va vaqtinchalik mehnatga jalb qilish yo‘li bilan hal qilishga harakat qilgan edi [19. B. 20–23]. Ammo bu chora-tadbirlar kutilgan natijalarni bermadi, chekka mintaqalarda majburan ko‘chirib keltiriladigan quloq oilalari mehnatidan keng foydalanishga qaror qilindi. 1930–1932-yillarda surgun qilingan dehqonlar soni 1,8 millionga yetdi [15. B. 168].

Vaqt o‘tishi bilan kolxozlarning moddiy bazasiga qo‘shimcha sifatida quloqlar mulkidan foydalanish mumkin bo‘lmay qoldi, chunki amalda ulardan hech narsa qolmagan edi. Shuning uchun quloqlar surgunining ikkinchi va uchinchi bosqichlarida surgun qilingan quloqlardan ishchi kuchi sifatida foydalanishga ustuvorlik berildi. Buning isboti sifatida SSSR XKS raisi o‘rinbosari A.A.Andreev, G.Yagoda va P.Postishevlardan iborat komissiyaning qarorlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Komissiyaning asosiy vazifalari quloqlarni surgun qilish va ishchi kuchi tanqis bo‘lgan mintaqalarni aniqlash, surgun oqimini yo‘naltirish bo‘lgan. Andreev komissiyasi maxsus ko‘chirilganlar mehnatidan foydalanish bo‘yicha turli xalq komissarliklari va xo‘jalik tashkilotlaridan arizalar qabul qilgan va ularning iqtisodiy takliflari asosida 1931–1932-yillarda maxsus ko‘chirilganlarni surgun qilish va joylashtirish hududlarini, surgun qilinganlar mehnat faoliyatidan foydalanish sohalarini hamda zarur mehnat kuchi miqdorini aniqlaganlar [14. B. 37].

O‘zbekiston SSRdagi quloqlar surgun qilingan maxsus posyolkalar asosan yangi o‘zlashtirilayotgan, aholi kam bo‘lgan hududlarda tashkil etilgan. Mehnat posyolkalaridagi quloqlar mehnatidan aksariyat yangi tashkil etilgan sovxozlarda paxtachilikni yo‘lga qo‘yish va qisman irrigatsiya tarmoqlarini barpo etish, bog‘dorchilik va sabzavotchilik xo‘jaliklarida arzon ishchi kuchi sifatida foydalanildi. O‘n minglab sobiq quloqlarning arzon ishchi kuchidan foydalanish o‘zining iqtisodiy samaralarini berdi. 1930-yillarning ikkinchi yarmidayoq deyarli kimsasiz cho‘l zonalarida tashkil etilgan paxtachilik sovxozlari paxta ekin maydonlari va paxta hosildorligi bo‘yicha yuqori natijalarga erisha boshladi. Bu hududlarda yangi irrigatsiya tarmoqlari barpo etilib, obod va gavjum aholi punktlari vujudga keldi.

Adabiyotlar:

1. *Ленин В.И.* Вульгарный социализм и народничество / В кн.: Полное собрание сочинений. Том 17. – Москва: Политиздат, 1981. – 796 с.

2. *Доброноженко Г.Ф.* Кто такой кулак: трактовка понятия “кулак” во второй половине XIX–20-х гг. XX в. // В кн.: Стратификация в России: история и современность. – Сыктывкар: Издательство Сыктывкарского государственного университета, 1999. – С. 38–52.

3. Ўзбекистон Миллий архиви (Ўз МА), 837-фонд, 8-рўйхат, 311-иш.

4. *Viola L*. The Campaign to Eliminate the Kulak as a Class, Winter 1929-1930: A Reevaluation of the Legislation // Slavic Review, 1986. – Vol. 45. – No 3. – Pp. 503–525.

5. Трагедия советской деревни. Коллективизация и раскулачивание. 1927–1939. // Документы и материалы. В 5-х томах. – Том 2. Ноябрь 1929 – декабрь 1930 / Под ред. В.Данилова, Р.Маннинг, Л.Виолы. – Москва: РОССПЭН, 2000. – 928 с.

6. Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивание, ссылка 1929–1955 гг. // Документы и материалы. В 3-х томах. – Том 2. /Сост.: проф. Р.Т.Шамсутдинов, к.и.н. Б.М.Расулов. Под ред. проф. Д.А.Алимовой. – Ташкент: Шарк, 2006. – 496 с.

7. Архивы Кремля. Политбюро и крестьянство: высылка, спецпоселение. 1930–1940. Книга 1. / Отв. ред. Н.Н.Покровский. – Москва: РОССПЭН, 2005. – 912 с.

8. Советская деревня глазами ВЧК-ОГПУ-НКВД. 1918-1939. Документы и материалы. В 4-х томах. – Том 3. 1930-1934 гг. Кн. 1. 1930-1931 гг. /Под ред. А.Береловича, В.Данилова. – Москва: РОССПЭН, 2003. – 864 с.

9. *Абдуллаев М.Ғ*. Ўрта Осиёдаги махсус посёлкалар тизими ва сургун қилинган қулоқлар тақдири (1930–1954 йиллар). – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 352 б.

10. Россия Федерацияси давлат архиви (РФДА), 9414-фонд, 1-рўйхат, 1943-иш.
11. РФДА, 9479-фонд, 1-рўйхат, 3-иш.
12. Россия ижтимоий-сиёсий тарихи давлат архиви (РИСТДА), 62-фонд, 2-рўйхат, 2520-иш.
13. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси архиви (ЎзР ПАА), 58-фонд, 8-рўйхат, 229-иш.
14. История сталинского Гулага. Конец 1920-х – первая половина 1959-х годов. Собрание документов в 7-ми томах. Том 5. Спецпереселенцы в СССР / Отв. ред. и сост. Т.В. Царевская-Дякина. – Москва: РОССПЭН, 2004. – 824 с.
15. *Ивницкий Н.А*. Судьба раскулаченных в СССР. – Москва: Собрание, 2004. – 298 с.
16. РФДА, 9479-фонд, 1-рўйхат, 19-иш.
17. РФДА, 5446-фонд, 57-рўйхат, 15-иш.
18. РФДА, 9414-фонд, 1-рўйхат, 368-иш.
19. *Красильников С.А*. Серп и Молох. Крестьянская ссылка в Западной Сибири в 1930-е годы. – Москва: РОССПЭН, 2003. – 286 с.

IDEOLOGICAL AND SOCIO-ECONOMIC FACTORS OF PEASANT EXILE IN 1930–1940

Muzrob G. Abdullaev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 5(73). 38-45.
[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str., University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: agrarian policy, ideological factor, collectivization, kulak, dispossession, kulak farms, OGPU, exile, exiled regions, stages of exile, curfew supervision, special settlement.

The article is analyzed the ideological factors of the repressive exile policy of the Soviet state, as well as the socio-economic reasons for the mass exile of peasants in the 1930s. The article highlights 4 stages of exile by peasant families in the Uzbek SSR, showing the scale and features of each stage of exile. The essence of regulations developed on issues of administrative management in places of exile is described.

At the end of the 1920s, after a series of discussions on the reconsideration of the agrarian issue in the Soviet state, it was decided to collectivize it altogether. Power structures used collectivization to destroy the foundations of capitalism in the countryside and find funds for the industrialization of the country. The first phase of the exile of the ears solved the problem of eliminating the class of ears. Since more than 80 percent of the population in the Soviet state lived in the villages in the 1920s, the problem of peasants was a priority issue for the state. The use of hired labor by the kulags led to their being called the “exploiting class”.

At the end of the 1920s, after a series of discussions on the reconsideration of the agrarian issue in the Soviet state, it was decided to collectivize it altogether. Power structures used collectivization to destroy the foundations of capitalism in the countryside and find funds for the industrialization of the country. The first phase of the exile of the ears solved the problem of eliminating the class of ears. Since more than 80 percent of the population in the Soviet state lived in the villages in the 1920s, the problem of peasants was a priority issue for the state. The use of hired labor by the kulags led to their being called the “exploiting class”.

The exile of kulaks during collectivization in the Uzbek SSR can be divided into four stages. The first stage of exile took place in 1930. The second stage of deportation of peasants took place in 1931. Exile work at this stage was more intensive than in 1930. In the republics of Central Asia, the exile of the 2nd and 3rd category kulak households within the region was mainly carried out in May 1932. This is the third stage of the “exile of ears” in Central Asia. The fourth stage of deportation of peasant farms was carried out in 1933-1936.

On July 1, 1931, the decision of the Soviet of People’s Commissars of the USSR “On the organization of special displaced persons” was adopted. This decision served as a state law that paved the way for the creation and operation of the system of special settlements. In the decision, the legal status of the deportees was determined, the establishment of special settlements, the main directions of their activity and, most importantly, the procedures for using the labor of the residents of special settlements were indicated.

References:

1. Lenin, V.I. (1981) Vul'garnyj socializm i narodnichestvo Vulgar socialism and populism]. In: Polnoe sobranie sochinenij [Full composition of writings]. Vol. 17. Moscow: Politizdat.

2. Dobronozhenko, G.F. (1999) Kto takoj kulak: traktovka ponyatiya "kulak" vo vtoroj polovine XIX–20-h gg. XX v. [Who is a fist: interpretation of the concept of "fist" in the second half of the 19th–20s. XX century]. In: Stratifikaciya v Rossii: istoriya i sovremennost' [Stratification in Russia: history and modernity]. Syktyvkar: Izdatel'stvo Syktyvkarskogo gosudarstvennogo universiteta. Pp. 38-52.

3. O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA) [National archive of Uzbekistan (NA of Uz]. Fund 837, List 8, Collected volume 311.

4. Viola, L. (1986) The Campaign to Eliminate the Kulak as a Class, Winter 1929-1930: A Reevaluation of the Legislation. *Slavic Review*. Vol. 45. No. 3. Pp. 503-524.

5. Danilova, V. (ed.al) (2000) Tragediya sovetskoj derevni. Kollektivizaciya i raskulachivanie. 1927–1939 [The tragedy of the Soviet village. Collectivization and dispossession. 1927-1939. Dokumenty i materialy [Documents and materials]. In 5 volumes. Vol. 2. November 1929 – December 1930. Moscow: ROSSPEN.

6. Shamsutdinov, R.T., Rasulov, B.M. Alimova, D.A. (ed) (2006). Tragediya sredneaziatskogo kishlaka: kollektivizaciya, raskulachivanie, ssylka 1929-1955 gg [The tragedy of the Central Asian village: collectivization, dispossession, exile 1929-1955]. Dokumenty i materialy [Documents and materials]. In 3 volumes. Vol. 2. Tashkent: Shark.

7. Pokrovskij, N.N. (ed.) (2005). Arhivy Kremlya. Politbyuro i krest'yanstvo: vysylka, specposelenie. 1930–1940. [Kremlin archives. Politburo and the peasantry: deportation, special settlement. 1930-1940]. Book 1. Moscow: ROSSPEN.

8. Berelovich, A., Danilov, V. (ed.) (2003). Sovetskaya derevnya glazami VCHK-OGPU-NKVD. 1918-1939 [Soviet village through the eyes of the Cheka-OGPU-NKVD. 1918-1939]. Dokumenty i materialy Documents and materials]. In 4 volumes. Vol. 3. Book 1. Moscow: ROSSPEN.

9. Abdullaev, M.G'. (2018) O'rta Osiyodagi maxsus posyolkalar tizimi va surgun qilingan quloqlar taqdiri (1930-1954 yilar) [The system of special settlements in Central Asia and the fate of exiled kulaks (1930-1954)]. Tashkent: Akademnashr.

10. Rossiya Federaciyasining Davlat arhivi (RFDA) [State Archives of the Russian Federation]. Fund 9414, List 1, Collected volume 1943.

11. RFDA, Fund 9479, List 1, Collected volume 3.

12. Rossiya ijtimoiy-siyosiy tarixi davlat arxivi (RISTDA) [State Archive of Russian Socio-Political History]. Fund 62, List 2, Collected volume 2520.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi (O'zR PAA) [Archive of the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan]. Fund 58, List 8, Collected volume 229.

14. Carevskaya-Dyakina, T.V. (ed) (2004) *Istoriya stalinskogo Gulaga. Konec 1920-h – pervaya polovina 1959-h godov* [History of Stalin's Gulag. The end of the 1920s – the first half of the 1959s]. Sobranie dokumentov. Spetspereselensy v SSSR [Collection of documents]. In 7 volumes. Vol. 5. Special settlers in the USSR. Moscow: ROSSPEN.

15. Ivnickij. N.A. (2004) *Sud'ba raskulachennyh v SSSR* [The fate of the dispossessed in the USSR]. Moscow: Sobranie.

16. RFDA, Fund 9479, List 1, Collected volume 19.

17. RFDA, Fund 5446, List 57, Collected volume 15.

18. RFDA, Fund 9414, List 1, Collected volume 368.

19. Krasil'nikov, S.A. (2003) Serp i Moloh. Krest'yanskaya ssylka v Zapadnoj Sibiri v 1930-e gody [Sickle and Moloch. Peasant exile in Western Siberia in the 1930s]. Moscow: ROSSPEN.

Muallif haqida ma'lumot:

ABDULLAYEV Muzrobjon G'ulomovich – tarix fanlari doktori, Andijon davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi professori. E-mail: muzrobjon@list.ru

.